



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘SMIRLIK DAVRIDA RUHIY SALOMATLIKKA TA’SIR ETUVCHI PSIXOSOTSIAL OMILLAR

Xamrayeva Madina Dilshod qizi

Psixologiya fakulteti 2-inchi bosqich magistranti

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘smirlik davrida ruhiy salomatlikka ta’sir etuvchi biologik, psixologik, oilaviy, ijtimoiy va raqamli omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ruhiy salomatlik o‘smir shaxsining hissiy barqarorligi, o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida yoritiladi. Shuningdek, oiladagi psixologik muhit, maktab va tengdoshlar ta’siri hamda axborot muhitining ikki tomonlama xususiyati ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Maqola o‘smirlar ruhiy salomatligini mustahkamlashning nazariy asoslarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, ruhiy salomatlik, psixososial omillar, biologik rivojlanish, oilaviy muhit, tengdoshlar, ta’lim muhiti, motivatsiya, emotsional beqarorlik, raqamli muhit.

Аннотация:

В статье теоретически анализируются биологические, психологические, семейные, социальные и цифровые факторы, влияющие на психическое здоровье подростков. Психическое здоровье рассматривается как сложная система, связанная с эмоциональной устойчивостью, самосознанием и социальной адаптацией личности подростка. Также на основе научных источников раскрываются роль семейной среды,



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

влияние школы и сверстников, а также двойственный характер информационной среды. Статья раскрывает теоретические основы укрепления психического здоровья подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, психическое здоровье, психосоциальные факторы, биологическое развитие, семейная среда, сверстники, образовательная среда, мотивация, эмоциональная нестабильность, цифровая среда

Annotation:

This article provides a theoretical analysis of biological, psychological, family, social, and digital factors affecting adolescent mental health. Mental health is interpreted as a complex system related to emotional stability, self-awareness, and social adaptation. The paper also explains the role of family psychological climate, the influence of school and peers, and the dual nature of the digital environment based on scientific sources. The article reveals the theoretical foundations for strengthening adolescent mental health.

Keywords: adolescence, mental health, psychosocial factors, biological development, family environment, peers, educational environment, motivation, emotional instability, digital environment

Kirish

O'smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biridir. Ushbu davrda biologik yetilish bilan bir qatorda shaxsning psixologik tuzilmasi, ijtimoiy munosabatlari va o'zini anglash jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Shu bois o'smirlar ruhiy salomatligini



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

o'rganish bugungi psixologiya va pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ruhiiy salomatlik o'smirning hissiy barqarorligi, stressga bardoshlilik, o'zini baholashi, ijtimoiy moslashuvi va hayotiy maqsadlarni shakllantirish qobiliyati bilan uzviy bog'liq [5]. Zamonaviy ilmiy manbalarda o'smirlar ruhiy salomatligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p darajali tizim sifatida talqin qilinadi. Unga biologik rivojlanish, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, oiladagi tarbiya uslubi, tengdoshlar guruhi, ta'lim muhiti va raqamli makon kiradi [7]. Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida mazkur omillarning o'zaro ta'siri yanada murakkablashmoqda. Ayniqsa, emotsional dis-regulyatsiya, yolg'izlik, ijtimoiy izolyatsiya, virtual bosim va identiklik inqirozi o'smirlar ruhiy farovonligiga jiddiy xavf tug'dirayotgan omillar sifatida ko'rilmoqda [1; 8].

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda o'smirlar ruhiy salomatligi muammosi xalqaro va milliy miqyosda faol tadqiq etilmoqda. O'smirlarning maktabdagi psixosozial farovonligi, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitga bo'lgan ehtiyoji UNICEF materiallarida alohida ta'kidlanadi [2, 58-b.]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlarida ruhiy salomatlik shaxsning kundalik faoliyat, ijtimoiy munosabatlar va ichki muvozanatni saqlash qobiliyati bilan bog'liq holat sifatida talqin qilinadi [7]. Paulus va hammualliflar bolalar hamda o'smirlarda emotsional dis-regulyatsiya ruhiy buzilishlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib, hissiy boshqaruvdagi nuqsonlar depressiv, xavotirli va xulqiy muammolar xavfini kuchaytirishini qayd etadilar [8]. Achterbergh va hammualliflar esa depressiyaga moyil yoshlar tajribasida yolg'izlik omili chuqur ichki izolyatsiya va emotsional og'irlikni kuchaytirishini ko'rsatadilar [1].



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Mahalliy tadqiqotlarda ham masala dolzarb ilmiy yoʻnalish sifatida qaralmoqda. Narmetova va Joʻrayeva bolalar hamda oʻsmirlar ruhiy salomatligi bilan bogʻliq muammolarni oilaviy, ijtimoiy va taʼlimiy omillar kesimida tahlil qilib, profilaktik yondashuv zarurligini asoslaydilar [5]. Mahkamova oilaning psixologik sogʻlom modeli oʻsmirning hissiy xavfsizligi va ijtimoiy moslashuvi uchun tayanch muhit ekanini taʼkidlaydi [4]. Xayitov va hammualliflar shaxsiy motivatsiya oʻsmirning ijtimoiy faolligi, ichki barqarorligi va oʻz maqsadlariga yoʻnaltirilgan rivojlanishida muhim omil ekanini koʻrsatadilar [9, 242-b.]. Raqamli muhit masalasida Ortiqova va Oribboyeva tarbiya jarayonida internet va media platformalarning imkoniyatlari bilan bir qatorda xavf-xatarlarini ham koʻrsatadilar [6]. Xudoyberganova esa oʻsmirlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlik va media savodxonlikni shakllantirish zarurligini ilgari suradi [10]. Shu jihatdan, mavjud ilmiy adabiyotlar oʻsmirlar ruhiy salomatligini bir omilli emas, balki koʻp omilli psixososial tizim sifatida tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Asosiy qism

Oʻsmirlik ontogenezning biologik jihatdan eng faol bosqichlaridan biridir. Bu davrda jinsiy yetilish, gormonal faollikning ortishi, boʻy va vaznning jadal oʻsishi, markaziy asab tizimi funksional qayta tashkil topishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Mazkur oʻzgarishlar nafaqat jismoniy, balki psixologik sohada ham sezilarli aks etadi. Hissiy sezgirlikning ortishi, kayfiyatning tez-tez almashishi, impulsivlik va beqaror reaksiya koʻpincha biologik yetilish jarayonlari bilan bogʻliq. Biologik rivojlanishning muhim jihatlaridan biri shundaki, oʻsmir miyasining turli qismlari bir xil surʼatda yetilmaydi. Hissiyot, motivatsiya va mukofot bilan bogʻliq tizimlar nisbatan tezroq faol boʻlsa, xulqni nazorat



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qiluvchi va oqibatni oldindan baholashga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlari nisbatan kech shakllanadi. Shu sababli o'smirlik davrida xavfli qarorlar, emotsional toshqinlik va vaziyatga haddan tashqari sezgir javoblar kuzatilishi mumkin. Paulus va hammualliflar emotsional boshqaruvdagi qiyinchiliklar aynan shu yosh bosqichida ruhiy muammolar bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadilar [8]. Bundan tashqari, uyqu rejimining buzilishi, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning pasayishi va surunkali charchoq kabi fiziologik omillar ham o'smir ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ruhiy va jismoniy salomatlikning o'zaro bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, biologik muvozanat buzilgan sharoitda hissiy barqarorlikni saqlash qiyinlashadi. Shu sababli o'smirlar ruhiy salomatligini tushuntirishda biologik rivojlanish xususiyatlarini inkor etib bo'lmaydi.

O'smir ruhiy salomatligining shakllanishida individual-psixologik omillar muhim o'rin tutadi. Bular qatoriga temperament, xarakter, o'ziga bo'lgan ishonch, motivatsion tizim, qadriyatlar va shaxsiy maqsadlarning shakllanishi kiradi. Har bir o'smir biologik jihatdan o'xshash bosqichni boshdan kechirsada, uning psixologik reaksiyalari individual xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Temperament o'smirning hissiy reaktivligi, stressga munosabati va ijtimoiy vaziyatlarga moslashuv darajasini belgilovchi tayanch omillardan biridir. Hissiy sezgir va tez qo'zg'aluvchan o'smirlar tashqi ta'sirlarga nisbatan keskinroq javob qaytarishi, natijada xavotir, jahldorlik yoki ichki zo'riqish holatlariga ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Aksincha, nisbatan muvozanatli temperament o'smiringa ruhiy bosimlarni yengishda yordam beradi. O'ziga ishonch ham ruhiy salomatlikning markaziy ko'rsatkichlaridan biridir. O'smirlikda shaxs o'z qobiliyatlari, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei va tengdoshlari orasidagi o'rnini faol baholaydi. O'zini ijobiy qabul qilgan o'smir tashabbuskorlik, mustaqillik va ijtimoiy faollikni namoyon etadi; o'ziga past



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

baho berish esa uyatchanlik, ijtimoiy chekinish va emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Narmetova va Jo‘rayeva o‘smir ruhiy muammolarining ildizlaridan biri sifatida aynan ichki psixologik tayanchlarning zaifligini ko‘rsatadilar [5]. Motivatsiya va qadriyatlar tizimi ham o‘smirning ruhiy salomatligiga bevosita ta‘sir qiladi. O‘z oldiga maqsad qo‘ya oladigan, o‘z faoliyatiga ma‘no bera oladigan, istiqbolni tasavvur qila oladigan o‘smirlar ichki jihatdan barqarorroq bo‘ladi. Xayitov, Adilova va Arabovlar shaxsiy motivatsiya insonning o‘zini rivojlantirish jarayonida ichki harakatlantiruvchi kuch ekanini ta‘kidlaydilar [9, 242-b.]. Demak, motivatsion tizimning shakllanishi ruhiy salomatlikni mustahkamlovchi psixologik tayanchdir.

Oila o‘smir uchun birlamchi ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, uning ruhiy salomatligiga eng chuqur va uzoq muddatli ta‘sir ko‘rsatadigan muhitlardan biridir. Oila ichidagi hissiy iqlim, ota-ona bilan ishonchli muloqot, qo‘llab-quvvatlovchi munosabat va barqaror tarbiya uslubi o‘smirning hissiy xavfsizligini ta‘minlaydi. Mahkamova psixologik sog‘lom oilani shaxsning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi himoya muhiti sifatida tavsiflaydi [4, 140-b.]. Ijobiy oilaviy muhitda o‘smir o‘z fikrini erkin ifoda etadi, muammolarini bo‘lishadi va ota-onasidan emotsional tayanch oladi. Bunday sharoit o‘ziga ishonchni oshiradi, ichki xavotirni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi. Aksincha, sovuq munosabat, tez-tez nizolar, e‘tiborsizlik yoki haddan tashqari nazorat o‘smirda himoyasizlik, ichki bosim va emosional chekinishni yuzaga keltiradi. Tarbiya uslubi bu masalada alohida ahamiyatga ega. Fung va Deng zamonaviy oilalarda autoritativ va avtoritar uslublar o‘rtasidagi nisbat o‘smir ruhiy farovonligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini qayd etadilar [3]. Muvozanatli, qo‘llab-quvvatlovchi va shu bilan birga me‘yoriy chegaralarni belgilovchi tarbiya uslubi o‘smirning mustaqilligi



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

bilan psixologik xavfsizligini uyg'unlashtiradi. Shu jihatdan, oilani o'smir ruhiy salomatligining asosiy himoya omili sifatida talqin qilish mumkin.

O'smirlik davrida tengdoshlar guruhi shaxs rivojlanishining markaziy ijtimoiy maydoniga aylanadi. O'smir o'zini tengdoshlari bahosi orqali ko'ra boshlaydi, ularda qabul qilinish ehtiyojini his etadi va ijtimoiy identikligini shakllantiradi. Tengdoshlar tomonidan qabul qilinish o'zini qadrlashni oshirsa, rad etilish yoki ijtimoiy chetlatilish ichki yolg'izlik va tushkunlikni kuchaytiradi. Achterbergh va hammualliflar yoshlar orasida yolg'izlik tajribasi ko'pincha nafaqat jismoniy, balki emotsional uzilganlik hissi bilan bog'liqligini ko'rsatadilar [1]. Demak, o'smirning ko'plab odamlar orasida bo'lishi uning ichki jihatdan bog'langanini anglatmaydi. Sifatli do'stona aloqa, emotsional qo'llab-quvvatlash va o'zaro tushunish ruhiy farovonlikni mustahkamlaydi. Tengdoshlar muhiti ikki tomonlama tabiatga ega. Bir tomondan, u ijtimoiy ko'nikmalarni, empatiyani, hamkorlikni va o'zaro yordamni rivojlantiradi. Ikkinchi tomondan, guruh bosimi xavfli xulq, tajovuzkorlik yoki noto'g'ri qadriyatlarga moslashishni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli tengdoshlar ta'siri o'smir ruhiy salomatligining bir vaqtning o'zida ham resurs, ham xavf omili sifatida qaraladi.

Ta'lim muhiti o'smir hayotining katta qismini tashkil etadi. Maktab nafaqat bilim beruvchi institut, balki ijtimoiylashuv, o'zini namoyon etish va hissiy tajriba orttirish maydoni hamdir. Duchi maktabdagi psixososial farovonlikni o'smirning xavfsizlik hissi, qabul qilinish tajribasi va ta'lim muhitida o'zini qadrlangan subyekt sifatida sezishi bilan bog'laydi [2, 58-b.]. Ijobiy ta'lim muhitida o'quvchi o'z fikrini erkin ayta oladi, xato qilishdan qo'rqmaydi va o'qituvchilar bilan hurmatli aloqada bo'ladi. Bunday muhit ichki xavotirni kamaytiradi, o'qishga motivatsiyani oshiradi va o'ziga ishonchni mustahkamlaydi. Aksincha, haddan tashqari raqobat, adolatsiz baholash,



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

psixologik bosim yoki kamsituvchi munosabatlar o‘smir ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim muhitidagi to‘garaklar, sport, ijodiy tadbirlar va jamoaviy loyihalar ham o‘smir ruhiy salomatligi uchun muhim resursdir. Ular o‘quvchiga o‘z qobiliyatlarini namoyon etish, ijtimoiy rol topish va muvaffaqiyat tajribasini boshdan kechirish imkonini beradi. Shu bois, maktab muhitini faqat akademik natijalar bilan emas, balki uning psixologik iqlimi bilan baholash zarur.

Raqamli texnologiyalar o‘smirlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Internet va ijtimoiy tarmoqlar bilim olish, muloqot qilish, qiziqishlarni rivojlantirish va global axborot maydoniga kirish imkonini beradi. Shu ma‘noda raqamli muhit o‘smirning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy xizmat qilishi mumkin [6]. Biroq raqamli makonning salbiy jihatlari ham kam emas. Virtual muhitda o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, ijtimoiy bahoga qaramlik, zararli kontent, manipulyativ axborot va onlayn bosim o‘smirning hissiy barqarorligini izdan chiqarishi mumkin. Ortiqova va Oribboyeva raqamli tarbiyada imkoniyatlar bilan bir qatorda xatarlarni ham hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydilar [6, 673–677-b.]. Xudoyberganova esa axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish, ya‘ni o‘smirni raqamli manipulyatsiya va zararli ta‘sirlarga nisbatan ichki himoyalangan qilish muhimligini ko‘rsatadi [10, 357–363-b.]. Shuningdek, raqamli qurilmalardan me‘yordan ortiq foydalanish uyqu rejimini buzadi, jismoniy faollikni kamaytiradi va psixologik charchoqni kuchaytiradi. Shu sababli raqamli gigiena, media savodxonlik va sog‘lom foydalanish odatlarini shakllantirish o‘smir ruhiy salomatligini saqlashning zamonaviy shartlaridan biriga aylanmoqda.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Muhokama

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'smirlar ruhiy salomatligini bitta omil bilan tushuntirish mumkin emas. U biologik yetilish, individual psixologik xususiyatlar, oiladagi munosabatlar, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muhiti va raqamli makonning o'zaro kesishgan ta'siri natijasida shakllanadi. Shuning uchun ruhiy salomatlikni faqat kasallikning yo'qligi emas, balki o'smirning ichki va tashqi resurslari muvozanati sifatida baholash maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar oilani himoya omili, tengdoshlar va maktabni ijtimoiy vositachi omillar, raqamli muhitni esa ikki tomonlama ta'sir manbai sifatida ko'rsatadi [2; 4; 6]. Emotsional dis-regulyatsiya, yolg'izlik va motivatsion bo'shliq ruhiy salomatlik buzilishining nazariy indikatorlari sifatida ajralib turadi [1; 8; 9]. Shu jihatdan, o'smirlar bilan ishlashda integrativ yondashuv zarur: biologik rivojlanishni tushunish, psixologik resurslarni kuchaytirish, oilaviy muloqotni yaxshilash, maktabni qo'llab-quvvatlovchi makonga aylantirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish bir-birini to'ldirishi kerak.

Xulosa. O'smirlar davrida ruhiy salomatlikka ta'sir etuvchi omillar nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hodisa ko'p qatlamli va psixososial tabiatga ega. Biologik rivojlanish o'smirning hissiy sezgirligi va xulqiy reaksiyalariga ta'sir etsa, psixologik omillar uning ichki barqarorligi va o'ziga munosabatini belgilaydi. Oilaviy muhit hissiy xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash manbai sifatida, tengdoshlar esa ijtimoiy qabul va identiklik shakllanishi makoni sifatida muhimdir. Ta'lim muhiti o'smirning o'zini qadrlashi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishi mumkin, raqamli muhit esa to'g'ri boshqarilganda rivojlantiruvchi, nazoratsiz holatda esa xavfli omilga aylanadi. Shunday qilib, o'smirlar ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun kompleks yondashuv zarur. Unda oilaviy psixologik madaniyat, maktabdagi sog'lom iqlim, shaxsiy motivatsiya, emotsional boshqaruv ko'nikmalari va media savodxonlik uyg'un



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

holda rivojlantirilishi lozim. Mazkur nazariy xulosalar keyingi amaliy tadqiqotlar va psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achterbergh, L., Pitman, A., Birken, M., Pearce, E., Sno, H., Johnson, S. The experience of loneliness among young people with depression: a qualitative meta-synthesis of the literature // BMC Psychiatry. – 2020. – Vol. 20, № 1. – Article 415. – DOI: 10.1186/s12888-020-02818-3.
2. Duchi, V. Psixicheskoye zdorovye i psixososialnoye blagopoluchiye podrostkov v shkole [Elektron resurs]. – 2022. – Kirish rejimi: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5181/file/Благополучие%20подростков%20в%20школе.pdf>
3. (Murojaat qilingan sana: 21.03.2026). – 58-b.
4. Fung, A. L. C., Deng, Y. Cultural hybridity and parenting styles: analyzing authoritative and authoritarian dynamics in Hong Kong // Social Sciences. – 2025. – Vol. 14, № 10. – Article 584. – DOI: 10.3390/socsci14100584.
5. Mahkamova, S. Psixologik sog‘lom oila modeli. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2022. – 140-b.
6. Narmetova, Y. K., Jo‘rayeva, R. A. Bolalar va o‘smirlar ruhiy salomatligi, muammolar va yechimlar // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, № 11-2. – 55–60-b. – DOI: 10.5281/zenodo.17719836.
7. Ortiqova, S. R. Q., Oribboyeva, D. D. Raqamli muhitda tarbiya: imkoniyatlari va xatarlar // Science and Education. – 2025. – Vol. 6, № 12. – 673–677-b.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

8. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Ruhiy salomatlik [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://stt.ssv.uz/oz/pages/ruhiy-salomatlik>
9. (Murojaat qilingan sana: 21.03.2026).
10. Paulus, F. W., Ohmann, S., Möhler, E., Plener, P., Popow, C. Emotional dysregulation in children and adolescents with psychiatric disorders: a narrative review // *Frontiers in Psychiatry*. – 2021. – Vol. 12. – Article 628252. – DOI: 10.3389/fpsy.2021.628252.
11. Xayitov, A. B., Adilova, G. A., Arabov, N. U. Personal motivatsiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 242-b.
12. Xudoyberganova, Sh. O‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish // *Zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxs rivojlanishining dolzarb muammolari: axborot, raqamli texnologiyalar va tarbiya mexanizmlari: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Toshkent, 2025. – 357–363-b.